

MUHAMMAD NIYOZ NISHOTIY MUNOZARALARI VA ALISHER NAVOIYNING „LISON UT-TAYR” DOSTONIDAGI OBRAZLAR TAHLILI

E’zoza Usmonbekova

FarDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda Nishotiyning „Qushlar munozarasi” asarida keltirilgan masalalar qiyosan Alisher Navoiyning „Lison ut-tayr” dostoni asosida tahlil qilinadi va obrazlar solishtiriladi.

Kalit soʻzlar: munozara, Nishotiy, Alisher Navoiy, munozaralar.

Avvalo, ikkila asarda ham mavjud boʻlgan munozara janri va uning mohiyati qanday ekanini aniqlab olish lozim. Munozara – arabcha soʻzdan olingan boʻlib, „bahs, tortishuv” maʼnolarini anglatadi va adabiyotda turli jonli, jonsiz narsa yoki jonivorlarning bahslashuvini yoritib beruvchi adabiy janr tarzida yuzaga kelgan. Ushbu janr ijtimoiy hayotdagi fikrlar kurashini ham ifodalaydi. Munozara soʻzining oʻzagi *nazara* boʻlib, „birgalikda qarash, birgalikda oʻylash, ilmiy bahs” degan maʼnosi koʻrsatiladi.¹ Munozara juda qadimiy ildizga ega va u ikki turga ajratiladi:

Birinchisi – ilmiy munozara va savol-javob kabi usullardan foydalangan holda muhokama qilinadigan didaktik ilmiy matnlar.

Ikkinchisi – adabiy munozara, yaʼni sheʼriy va nasriy asarlardir.

Turkiy xalqlar adabiyotidagi munozaralar qadimgi xalq ogʻzaki ijodi namunalari bilan bogʻliq boʻlib, bizgacha uning ilk yozma koʻrinishi XI asrda Mahmud Koshgʻariyning „Devonu lugʻotit - turk” asari orqali yetib kelgan. Oʻzbek adabiyoti tarixida munozara janri rivojiga katta hissa qoʻshgan xorazmlik shoir Muhammad Niyoz Nishotiydir. Adib koʻplab asarlar va „Husni dil” dostonini yozgan. Doston tarkibida beshta munozara mavjud. „Qushlar munozarasi” alohida masnaviy sifatida yaratilgan. „Husni dil” asarining 8-9-boblari munozara kimlarni ustoz deb bilib, ularga oʻxshash munosib asar yaratishga uringani bayon etilgan. Jumladan, Alisher Navoiy madh etiladi. Maʼlumki, „Lison ut-tayr” A.Navoiyning umri soʻnggida yaratilgan irfoni dostoni boʻlib, „Mantiq ut-tayr” boʻlajak shoirga qattiq taʼsir qilib, dostonning yozilishi uchun turtki boʻladi.

„Lison ut-tayr”ning 39-bobida Bulbulning uzri aks etadi: bulbul guldan ayrilgani uchun faryod chekib, hudhudga afsona aytadi. Hudhud esa unga javoban baqosiz gul uchun behuda oh urayotgani, shunday narsani maʼshuq deb bilki, yuz xastahol oʻlsa va yoʻqolib ketsa ham u zavol nimaligini bilmasin deya xitob qiladi. Nishotiyning „Husni dil” dostonida „Boz va Bulbul” hikoyati oʻrin olgan boʻlib, unda Bulbul Boz

¹ Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik. – Toshkent, 2003.

(lochin)ga nisbatan kibrga berilgan holda noo‘rin so‘zlar aytadi. U el orasida xushovozligi bilan mashhur ekanligi, Bozda esa bunday fazilatlar unda yo‘q ekanligini aytib, uni tanqid qiladi. Boz esa Bulbulning so‘zlarida lof ufurib turgan, so‘zlaganda e‘tibor bilan so‘zlash kerakligi aytib, mimi dihon doim xomush yurishi lozimligini aytadi. Aslida mimi dihon – ikki lab, u bir qafasdir. U yerdan har nafasda naqshli so‘zlar yangraydi. Ikkala munozarada bulbul obrazi mavjud hamda tasavvufiy ma’noda insonni aqlga ortiqcha baho bermaslikka, g‘ururga berilib, manmanlik, ba’zan shoshqaloqlik bilan xulosa chiqarib, insonni adashtirib qo‘yish odati borligini, shu bois Haq jamolini idrok etish uchun aqlning ojizlik qilishi, buning uchun ma’rifatga, bilimlarga erishish lozimligini anglatadi.

„Qushlar munozarasi” dostoni so‘nggida Hudhud yakun yasab, Humoga ko‘p pand-nasihat o‘rnida shunday deydi:

Dedikim: „Ey Humo, dema zinhor,

Manumanlikni sevmagay jabbor.

Erdi shayton muqarrabi dargoh,

Bo‘ldi manmanlikindin ul gumroh.

Ul Sulayomonki, dunyoni tutdi

Rif‘ati yetti charxdin o‘tdi.

Erdi Tangrig‘a ul nabiyu rasul

Qilur erdi so‘zim hamisha qabul”.

Shundan so‘ng barcha qushlar Hudhudni duo qiladi.

“Lison ut-tayr” dostonida esa Humoy Hudhudga uzr tilab, shunday deydi:

“Ondadur iqboldin poyam mening,

Kim berur taxti sharaf soyam mening.

Zotima oncha sharaf bersa iloh,

Kim mening soyam gadoni qilsa shoh...”

Bunga javoban Hudhud shohlar tarixini varaqlab chiqilsa, biror shoh Humoyning soyasi tufayli shunday darajaga ko‘tarildi, degan sabab topilmasligini, u bir tirikchiligi-yu yemagi dashtda topilgan qoqshol suyaklar ekani aytib, tanbeh beriladi. Agar izdoshlik nuqtayi nazaridan qaralsa, syujet va obrazlar davom ettirilgan. Ulardagi hikmatlar, beriladigan xulosalar umumiy ko‘rinadi. Shuni aytish o‘rinliki, Nishotiyning munozaralarida qushlar o‘zaro bir-biriga nasihat sifatida xitob qiladi va allegorik vazifa tashiydi. Alisher Navoiy „Lison ut-tayr” dostonida esa ko‘proq tasavvufiy allegoriya yuqoriroq turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Sirojiddinov. Navoiyshunoslik. - Toshkent, 2019.
2. O.Abdurahmonov. Nishotiy munozaralarining matniy tahlili. – Toshkent, 2022.
3. R.Orzibekov. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2006.
4. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent, 2005.